

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHA TLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131


17. Kamilov Farxod INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon IJTIMOIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon ZAMONAVIY RAXBARLARDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Raximova Shaxnoza,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Axborot-kutubxona tizimlari” kafedrasida dotsenti,
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: shaxnozaanvarovna11@gmail.com

AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354951>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslar batafsil tahlil qilinadi. Maqola kutubxona tizimining rivojlanishi, uning jamiyatdagi o'rnini va bugungi kunda qanday qilib yanada samarali ishlashini ko'rib chiqadi. Shu bilan birga qonunchilik bazasi va tashkiliy tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ularning kutubxona faoliyatiga ta'siri hamda ushbu tizimlarni takomillashtirishdagi muhim rolini o'rganish maqsad qilingan. Maqolada shuningdek, kutubxona tizimining samarali ishlashida muhim bo'lgan me'yoriy hujjatlar, davlatning qo'llab-quvvatlashi va resurslar ta'minoti, shuningdek, kutubxona mutaxassislarining malakasini oshirish zarurati haqida ham fikrlar bildirilib, muayyan tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: axborot-kutubxona, institutsional asoslar, takomillashtirish, me'yoriy-huquqiy baza, raqamli transformatsiya, kutubxona xizmatlari, foydalanuvchilar bilan ishlash, xalqaro standartlar, innovatsion texnologiyalar, bilimlarni boshqarish.

Raximova Shaxnoza,
Доцент кафедры “Информационно-библиотечные системы”
доктор философии (PhD) по социологическим наукам
Ташкентского университета информационных технологий
имени Мухаммада ал-Хорезми
e-mail: shaxnozaanvarovna11@gmail.com

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ОСНОВА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен подробный анализ институциональной базы, необходимой для совершенствования деятельности информационно-библиотечной системы и повышения её эффективности. В статье рассматривается развитие библиотечной системы, её роль в обществе и пути повышения её эффективности в современных условиях. В то же время, целью статьи является изучение взаимосвязи между законодательной базой и

организационными структурами, их влиянием на деятельность библиотек и их важной ролью в совершенствовании этих систем. В статье также рассматриваются нормативные документы, важные для эффективного функционирования библиотечной системы, государственной поддержки и ресурсного обеспечения, а также необходимость повышения квалификации библиотечных специалистов, и даются конкретные рекомендации.

Ключевые слова: информационная библиотека, институциональная база, совершенствование, нормативная база, цифровая трансформация, библиотечные услуги, работа с пользователями, международные стандарты, инновационные технологии, управление знаниями.

Rakhimova Shakhnoza,

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)

in Sociological Sciences,

Tashkent University of Information Technologies

named after Muhammad al-Khwarizmi

shaxnozaanvarovna11@gmail.com

INSTITUTIONAL BASIS FOR IMPROVEMENT OF INFORMATION AND LIBRARY ACTIVITIES

ABSTRACT

This article provides a detailed analysis of the institutional framework necessary to improve the activities of the information and library system and increase its efficiency. The article examines the development of the library system, its role in society and ways to increase its effectiveness in modern conditions. At the same time, the purpose of the article is to study the relationship between the legislative framework and organizational structures, their impact on the activities of libraries and their important role in improving these systems. The article also discusses regulatory documents important for the effective functioning of the library system, government support and resource support, as well as the need to improve the qualifications of library specialists, and gives specific recommendations.

Keywords: information library, institutional framework, improvement, regulatory framework, digital transformation, library services, work with users, international standards, innovative technologies, knowledge management.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda axborot-kutubxona faoliyati axborot jamiyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kutubxona muassasalari nafaqat kitoblar, axborot manbalarini saqlash va taqdim etish bilan shug'ullanadi, balki axborotni boshqarish, foydalanuvchilarga sifatli xizmat ko'rsatish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamiyatning intellektual, madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Kutubxona ijtimoiy institut sifatida zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy dinamikasida muhim omil bo'lib, uning rivojlanishi jamiyatning turli sohalarida institutsional asosga ega.

Institutsional asos – bu muayyan soha yoki faoliyatni tartibga solish, boshqarish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qonuniy-huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarning majmuasidir. Axborot-kutubxona faoliyati kontekstida institutsional asoslar kutubxona xizmatlarini samarali tashkil etish, ularning sifatini oshirish va zamonaviy talablarga moslashtirishni ta'minlovchi qonunlar, standartlar, boshqaruv tuzilmalari va resurslarni taqsimlash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Bu asoslar davlat siyosati, xalqaro tajriba va mahalliy ehtiyojlarga asoslanadi. Institutsional asoslar tushunchasi iqtisodiyot, sotsiologiya va boshqaruv fanlari doirasida keng o'rganilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda axborot-kutubxona faoliyatining institutsional asoslarini o'rganish uchun sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'unlashgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Normativ-huquqiy tahlil – kutubxona faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, standartlar va normativ hujjatlar o'rganilib, ularning amaliyotdagi samaradorligi va zamonaviy talablar bilan muvofiqligi baholandi.


Sotsiologik yondashuv – axborot-kutubxona xizmatlarining jamiyatdagi o'rni va foydalanuvchilar ehtiyojlari o'rganildi. Ijtimoiy institut sifatida kutubxonaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati, uning jamiyat rivojlanishidagi roli va kutubxonaning ijtimoiy funktsiyalari tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv – axborot-kutubxona faoliyatining institutsional mexanizmlarini (huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy) tizimli ravishda o'rganish, ularning o'zaro bog'liqligi va jamiyatdagi integratsiyasini aniqlashga yo'naltirildi.

ASOSIY QISM

Axborot-kutubxona muassasalari ijtimoiy institut va sotsiomadaniy fenomen sifatida o'zining institutsional funktsiyalarini amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy maydonda faoliyat yuritadi. Kutubxonalar faoliyatining tartibga solish samaradorligi institutsional muhitga bog'liq bo'lib, uning yetarliligi va rivojlanishi iyerarxik va komplekslik kabi xususiyatlar bilan ifodalanadi. Institutsional muhitning optimal faoliyati institutsional vositalarning kompleksligi orqali ta'minlanadi.

Institutsional xarakterga ega bo'lgan kompleks ijtimoiy funktsiyalarni tahlil qilarkanmiz, quyidagi chizmada ko'rib o'tishimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm. Kutubxonaning ijtimoiy funktsiyalari

ma'naviy ishlab chiqarish - nomoddiy ijtimoiy-madaniy xizmatlarni amalga oshirish orqali bilim sohasini tartibga soladi hamda ijtimoiy munosabatlarning takroriy ishlab chiqarilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

ijtimoiy qadriyatlarni saqlash, ko'paytirish va uzatish — bu turli turdagi hujjatli axborotlarni, insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarni va jahon madaniyati qadriyatlarini saqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon, kutubxonaning memorial funksiyasini amalga oshirishi uchun muhim ahamiyatga ega. Kutubxona, hujjatlarni tizimlashtirish va kataloglashtirish orqali axborot va bilim jarayonlariga xizmat qiluvchi muassasa sifatida, ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni, uning

taqsimlanishi va uzatilishi uchun turli axborot kanallaridan foydalanadi. Shuningdek, kutubxona, axborotni individual va shaxsiy bilimga aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

kommunikativ funksiyasi - kutubxona ijtimoiy hamjamiyatlarning foydalanuvchilari o‘rtasidagi kommunikativ aloqalarni amalga oshirish, xizmatlar ko‘rsatish va ularning diskursiv amaliyotlarini hamda muloqot jarayonlarini optimallashtirish vositasidir. Kutubxona instituti, ijtimoiy o‘zaro ta‘sirning turli subyektlarini birlashtiruvchi ma‘no maydonlarini shakllantirishni ta‘minlaydi. Shuningdek, u madaniyatlararo o‘zaro anglashuvning muhim sharti, shaxsning kommunikativ ko‘nikmalari va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy kutubxona faoliyatining virtuallasuvi, ijtimoiy guruhlar, hamjamiyatlar va alohida ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning yangi va samaraliroq texnologiyalarini izlash va tatbiq etish imkonini yaratadi. Ixtiyoriylik, o‘zaro manfaatdorlik, faol ishtirok va hamkorlik tamoyillariga asoslangan tarmoq shaklidagi kutubxonalararo aloqalar, kutubxonaning ham, foydalanuvchilarning ham kommunikativ imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi”[1].

regulyativ funksiyasi - kutubxona institutining tartibga soluvchi (regulyativ) roli jamiyatda ma‘naviy ishlab chiqarishni ta‘minlash, axborotni saqlash, tarqatish va iste‘mol qilish jarayonlarida normativ-huquqiy asoslardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kutubxonaning o‘zi ham jamiyatda mavjud bo‘lgan qadriyat-normativ regulyatorlar, standartlar, an‘analar va kundalik amaliyotlar orqali tartibga solinadi. Mikro darajada kutubxona bilimni taqsimlash tizimining bir qismi bo‘lib xizmat qilsa, makro darajada esa u bilimlarni boshqarishning samarali va ommaviy tizimlaridan biri hisoblanadi.[2]

ijtimoiy nazorat - kutubxona tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat shakllari jamiyatdagi ijtimoiylashuv jarayonlariga “yumshoq” ta‘sir ko‘rsatish vositasidir. Kutubxona instituti shaxsning xulq-atvoriga tartibga soluvchi ta‘sir ko‘rsatib, uning hayoti va faoliyati strategiyalarini belgilaydi, ularni ijtimoiy normalar, standartlar va ijtimoiy muhitning ko‘rsatmalari bilan moslashishiga yordam beradi. Ijtimoiy nazoratning institutsional shakli sifatida kutubxona shaxslar va guruhlar uchun ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan chegaralarni shakllantiradi, ularning turli faoliyat sohaslarini tartibga soladi va boshqaradi.

integrativ funksiyasi - kutubxona instituti ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari subyektlari uchun umumiy ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishga yordam beradi, bu esa ma‘lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlaydi.

ta‘limiy funksiyasi - ta‘lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan zamonaviy kutubxona o‘zining ta‘limiy funksiyalarini faol amalga oshirib, uzluksiz ta‘lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Madaniy merosni aktuallashtirgan holda, kutubxona zamonaviy vakillik (representativ) madaniyatining muhim shakli sifatida qaralishi mumkin

insonyaratuvchi funksiyasi - kutubxona instituti shaxsning sotsiomadaniy faoliyat va ijod subyekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. U faqat shaxsning ta‘limi uchun axborot ta‘minotini amalga oshirib qolmay, balki insonning ma‘naviy intellektini oshirish rolni ham bajaradi.

Ilmiy adabiyotlarda kutubxona tizimining institutsional asoslarini takomillashtirish uchun uchta asosiy yo‘nalishlar ko‘rsatiladi:

- 1) axborot-kutubxona sohasida qonunchilikni modernizatsiya qilish;
- 2) tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish;
- 3) foydalanuvchilarga ko‘rsatiladigan axborot-kutubxona xizmatlarini sifatini oshirish va rivojlantirish.

Birinchi yo‘nalish axborot-kutubxona sohasida qonunchilikni modernizatsiya qilish bo‘lib, Respublikada axborot-kutubxona faoliyatining holatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar, zamonaviy talablarni inobatga olgan holda, axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishini va aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanishining ijtimoiy kafolatlarini ta‘minlash maqsadida me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko‘rish mumkin. Sohada qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonini[3]

1 ilovasida keltirilgan 72-maqsadi aynan aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda 89-maqsadi fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, fuqarolarning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish madaniyatini oshirish va axborotlardan erkin foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda axborot-kutubxona tizimlarini isloh qilish hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biriga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-apreldagi "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi [4] O'RQ-280-son Qonuni qabul qilingan bo'lib, Qonuning maqsadi axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunda axborot-kutubxona faoliyati sohasiga oid axborot-kutubxona resursi, axborot-kutubxona faoliyati, axborot-kutubxona fondi, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Shu jumladan, axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari, sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi, axborot-kutubxona muassasalarining turlari, foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi [5] PQ-4354-son Qarori qabul qilingan bo'lib, qarorning maqsadi aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining milliy model standarti "Национальный моделный стандарт деятельности информационно-библиотечных учреждений Узбекистана" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining 2019-yil 15-iyuldagi 286-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Mazkur Milliy model standartida Axborot kutubxona muassasalari ishining samaradorligi va sifatini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar, Axborot-kutubxona makonini tashkil etish, Axborot-kutubxona muassasalarini joylashtirish me'yorlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi yondashuv tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish bo'lib, bunda axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etishda optimal tuzilmalarini yaratish va ularni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, axborot-kutubxona tizimida samarali boshqaruv to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bu tizimning samaradorligini oshirish, foydalanuvchilarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash va kutubxona resurslarini optimal boshqarish imkonini yaratadi.

Axborot-kutubxona tizimining xalqaro standartlari va amaliyoti kutubxonaning global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashga yordam beradi. Shuning uchun, axborot-kutubxona muassasalari xalqaro ISO standartlari va IFLA ko'rsatmalariga amal qilishlari zarur. Bu, bir tomondan, kutubxonalarning faoliyatini umumjahon miqyosida izchil va aniq o'lchovlarga asoslangan holda tashkil etishga imkon beradi, ikkinchi tomondan esa kutubxona tizimining sifatini yaxshilaydi [6].

Bundan tashqari, axborot-kutubxona muassasalarida resurslarni boshqarish tizimi, kutubxona faoliyatining samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kutubxonalar o'z resurslarini optimal boshqarish orqali nafaqat o'z faoliyatini yaxshilash, balki foydalanuvchilarga sifatli xizmat ko'rsatishni ham ta'minlaydi. Resurslarni boshqarish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Moliyaviy boshqaruv: moliyaviy resurslar samarali taqsimlanishi va kutubxonaning ehtiyojlariga mos ravishda ajratilishi zarur. Bu, kutubxonaning resurslarini optimallashtirish va unga yetarlicha mablag' ajratilishini ta'minlaydi.

Kadrlar boshqaruvi: kutubxona xodimlarining malakasini oshirish, ularni doimiy ravishda tayyorlash va professional rivojlantirish zarur. Buning uchun mutaxassislarni ta'lim va treninglar orqali yangilab borish, ularning bilim va ko'nikmalarini zamon talablari darajasida saqlash muhimdir.

Axborot resurslarini boshqarish: kutubxona fondlarini to'plash, yangilash va saqlash, shuningdek, raqamli resurslardan samarali foydalanish. Axborot resurslarini boshqarishning samarali tizimi kutubxonaning foydalanuvchilar uchun qulayligini oshiradi va unga raqamli transformatsiyani joriy etishda yordam beradi.

Axborot-kutubxona faoliyatini optimallashtirishda tashkilot tuzilmalarining samarali boshqaruvi, raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni joriy etish muhim rol o'ynaydi. Samarali tashkil etilgan kutubxona tizimi foydalanuvchilarning ehtiyojlariga tez va aniq javob bera oladi, resurslarni optimal boshqaradi va zamonaviy texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etadi. Bu, o'z navbatida, kutubxona tizimining global miqyosda rivojlanishini va uning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi yondashuv foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan axborot-kutubxona xizmatlarini sifatini oshirish va rivojlantirish bo'lib, Axborot-kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirish va rivojlantirish bugungi kunda axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya va foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yondashuvlarni talab qiladi. Buning uchun kutubxona xizmatlari tizimini samarali tashkil etish va doimiy ravishda yangilab borish zarur. Xizmat sifatini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud bo'lib, bularga foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilish, bunda foydalanuvchilarning talab va ehtiyojlarini aniqlash kutubxona xizmatlarining sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, so'rovlar va anketalar o'tkazish orqali foydalanuvchilar fikrini olish, ularning ehtiyojlariga mos xizmatlarni ishlab chiqish, foydalanuvchi profillarini tahlil qilish va turli guruhlarning (talabalar, ilmiy xodimlar, pensionerlar va boshqalar) o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olish, shuningdek, foydalanuvchi qoniqishini o'lchash va xizmatlar sifatini doimiy ravishda baholab borish zarur hisoblanadi.

Axborot-kutubxona muassasalarida raqamli resurslar va onlayn xizmatlar yordamida foydalanuvchilarga tezkor va qulay xizmatlar ko'rsatish imkoniyati mavjud. Bu esa foydalanuvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri va samarali muloqot o'rnatish, kutubxona xizmatlarini yaxshilashga sezilarli darajada hissa qo'shadi. Kutubxona xizmatlarini sifatli taqdim etishning muhim omillaridan biri, mutaxassislarning yuqori malakasi va kasbiy kompetensiyasidir. Shuning uchun, kutubxona xodimlarini doimiy ravishda malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash zarur.

Bundan tashqari, kutubxona muassasalari foydalanuvchilarga qulayliklar yaratish orqali xizmatlar sifatini oshirishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, foydalanuvchilarning kutubxonaga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Axborot-kutubxona muassasalarida xizmat sifatini oshirishda xalqaro tajribani hisobga olish zarur. Xususan, IFLA (Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasi) va ISO (Xalqaro standartlar tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar va standartlar, kutubxona xizmatlarini global miqyosda rivojlantirishga yordam beradi [7,8].

Innovatsion texnologiyalar kutubxona xizmatlarini samarali va foydalanuvchilar uchun qulay qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalari yordamida foydalanuvchilarga qiziqtirgan materiallarni avtomatik tavsiya qilish mumkin. Raqamli hujjatlar va kontentlarni boshqarish tizimlari orqali kutubxonalar o'z fondlarini samarali yangilash va tarqatishni amalga oshirishi mumkin. QR kodlar, RFID texnologiyalari va boshqa raqamli yechimlar kutubxona resurslarining tezkor va samarali boshqarilishini ta'minlaydi [9].

Axborot-kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini oshirish va rivojlantirish uchun keng qamrovli yondashuvlar zarur. Foydalanuvchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, raqamli transformatsiyani joriy etish, xodimlarning malakasini oshirish, interaktiv xizmatlarni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashish - bularning barchasi ushbu jarayonning asosiy jihatlaridir. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni kutubxonalarda muvaffaqiyatli tatbiq etish ham xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil bo'ladi.

Bugungi kunda axborot-kutubxona muassasalari infratuzilmasining rivojlanishi ko'p jihatdan AKT bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u foydalanuvchilarga tezkor, sifatli va qulay xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Fondlarni shakllantirishda foydalanuvchi ehtiyojlariga asoslangan yondashuv, shuningdek, ilmiy, madaniy va ta'limiy ustuvorliklar hisobga olinishi lozim.

Axborot-kutubxona muassasalarida infratuzilmani va fondlarni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish bu nafaqat texnologik yangilanish, balki kutubxonaning ijtimoiy va madaniy institut sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday islohotlar foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashgan, ochiq, integrallashgan kutubxona muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari aholi va yoshlar uchun bilim, ma'lumot va madaniy merosga kirish imkoniyatini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu muassasalar faqatgina kitoblarni saqlash va tarqatish bilan cheklanmay, balki turli xil axborot resurslari va innovatsion texnologiyalar orqali aholi faolligini oshirishda faol ishtirok etadi.

Axborot-kutubxonalarda aholi va yoshlarning faolligini oshirish uchun bir qator omillar muhim ahamiyatga ega. Avvalo, kutubxona xizmatlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, jumladan raqamli transformatsiyani amalga oshirish kerak. Bu jarayonda elektron kutubxonalar, onlayn ma'lumot bazalari va interaktiv platformalar orqali foydalanuvchilarga qulaylik yaratish muhimdir. Shu bilan birga, yoshlarni jalb qilish maqsadida turli madaniy va ma'rifiy tadbirlar, treninglar, master-klasslar tashkil etish zarur.

Ikkinchidan, aholi o'rtasida axborot savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan bilim beruvchi dasturlar va loyihalarni joriy etish kerak. Bu kutubxona faoliyatining samaradorligini oshirish va foydalanuvchilarni faol ishtirok ettirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kutubxona xodimlarining malakasini oshirish va ularning innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bu esa xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga javob berish imkonini beradi. Axborot-kutubxona muassasalarida aholi va yoshlarning faolligini oshirish ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, davlat siyosatidan tortib, mahalliy jamoatchilik faoliyatigacha bo'lgan turli omillarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, ushbu sohadagi ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali institutsional mexanizmlarni joriy etish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va foydalanuvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda kutubxona tizimini rivojlantirish va uning jamiyatdagi rolini mustahkamlash uchun qonunchilik bazasi, tashkiliy tuzilma hamda moliyaviy va moddiy-texnik resurslar o'rtasida uzviy hamkorlik zarur. Shuningdek, kutubxona xodimlarining kasbiy malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar ko'lamini kengaytirish bugungi davr talabi ekanligini hisobga olgan holda me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini takomillashtirish va kutubxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi ularning faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin.

Axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirish hozirgi raqamli transformatsiya jarayonlarida ilmiy, madaniy va ta'limiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada axborot-kutubxona tizimining institutsional asoslari chuqur tahlil qilinib, ularning zamonaviy ijtimoiy talablar va texnologik yutuqlar asosida takomillashtirilishining zaruriyati asoslab berildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar faqat an'anaviy bilim manbai sifatidagina emas, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda axborot savodxonligini rivojlantiruvchi, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi muhim institutga aylanishi lozim. Buning uchun institutsional yondashuv asosida normativ-huquqiy baza takomillashtirilishi, kutubxonachilik sohasi mutaxassislarining salohiyatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda axborot resurslarining integratsiyasini ta'minlash zarurdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni keltiramiz:

kutubxona faoliyatiga oid qonun va normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitiga mos holda yangilash va ularning amalda to'liq tatbiq etilishini ta'minlash;
kutubxonalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar, elektron resurslar va axborot tizimlari bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratish;

kutubxona mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirish bo'yicha muntazam seminar-treninglar, malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularni xalqaro tajriba bilan boyitib borish;

kutubxonalarda an'anaviy xizmatlar bilan birga elektron kutubxona, masofaviy xizmat ko'rsatish va foydalanuvchilarga interaktiv xizmatlarni joriy etish;

axborot-kutubxona tizimini davlatning ijtimoiy rivojlanish siyosatiga uyg'unlashtirish orqali uning barqaror faoliyatini ta'minlashdan iborat.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Коган Л.Н. Социология культуры. – Екатеринбург: Изд-во Урал. унта, 1992. 120 с.
4. Кастелс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура; пер. с англ., под науч. ред. О.И.Шкаратана. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 606 с.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-con Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasining 13-aprel 2011-yildagi “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-280-son Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4354-son Qarori.
6. “Library Information System Audit Senayan Library Management System (SLiMS) Using ISO 9126” – Petrus Dwi Ananto Pamungkas (2018).
7. “Translating Standards into Actions: A Case Study on Implementation and Training” – Mary Ellen K. Davis va Lisa Janicke Hinchliffe (2013).
8. <https://www.ifla.org/standards/> IFLA “Guidelines for Library Services” yoki ISO 11620:2014 Library performance indicators.
9. Library Management Information System Using RFID and QR Code.- Journals: International Journal of Software & Hardware Research in Engineering (IJSHRE) Volume 9 Issue 8 August 2021ISSN-2347-4890.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000